

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI**

**MATYAKUBOV SHANOZAR SABIROVICH**

**XVI-XVIII ASR BIRINCHI YARMIDA XIVA XONLIGI  
HUNARMANDCHILIGI TARIXI**

**07.00.01 – O'zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Urganch – 2024**

UO‘K: 94(575.171)” XVI/XVIII”  
745(575.171)” XVI/XVIII”

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation**

**Matyakubov Shanozar Sabirovich**

XVI-XVIII asr birinchi yarmida Xiva xonligi hunarmandchilgi tarixi.....3

**Матякубов Шанозар Сабирович**

История ремесел Хивинского ханства в XVI-первой половине XVIII вв..... 27

**Matyakubov Shanozar Sabirovich**

History of handicrafts of the Khanate of Khiva in the 16<sup>th</sup> - the first half of the 18<sup>th</sup> centuries ..... 47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....51

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI**

**MATYAKUBOV SHANOZAR SABIROVICH**

**XVI-XVIII ASR BIRINCHI YARMIDA XIVA XONLIGI  
HUNARMANDCHILIGI TARIXI**

**07.00.01 – O'zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Urganch–2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Tar1111- raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Xorazm Ma'mun akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.urdu.uz](http://www.urdu.uz)) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdullayev Timur Pulatovich**  
tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponenlar:**

**Mavlonov Uktam Maxmasobirovich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Turganov Baxit Kurbanbayevich**  
tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 raqamli Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi kengashning 2024-yil "24" avgust soat 10 : 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-66-16. e-mail: [info@urdu.uz](mailto:info@urdu.uz)

Dissertatsiya matni bilan Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (A-1365 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-66-16. e-mail: [urdu@urdu.uz](mailto:urdu@urdu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "12" avgust kuni tarqatildi.

(2024-yil "10" avgust dagi 7 raqamli reestr bayonnomasi.)



**M.K.Saribaev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
tarix fanlari doktori, dotsent.

**X.X.Matyakubov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
Ilmiy kotibi, PhD, dotsent.

**U.I.Abdullayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, tarix  
fanlari doktori, professor.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda sodir bo'layotgan tarixiy xodisalar bir tomondan madaniyatlardagi va ishlab chiqarishdagi globallashuvni yuzaga keltirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan xalqlarning lokal xususiyatlari va turmush-tarzini jonlantirmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, hunarmandchilik sohasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Yevropa standartlariga bo'lgan ehtiyoj qancha yuqori bo'lsa, qo'l hunarmandchiligining qadri va bahosi ham shu darajada oshmoqda. Butun dunyoda hunarmandchilik sohasi chekka qishloqlarda ishsizlikni kamaytirish, nochor va nogiron kishilar qatlamini ish bilan ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash vositasiga aylandi. Shu jihatdan mazkur sohaning tarixiy ildizlarini chuqur tahlil etish bugungi kundagi dolzarb masalalar biri bo'lib qolmoqda.

Jahonda milliy hunarmandchilik turlarining shakllanishi va taraqqiyoti, badiiy hunarmandchilik sohalari va ishlab chiqarish jarayonidagi o'zgarishlar, sohadagi an'anaviylik va zamonaviylik nisbatlarining o'zgarishi, hunarmandchilik rivojiga ta'sir ko'rsatgan omillar va ularning hududlar iqtisodiyotiga ta'siri yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, mintaqaviy an'anaviy hunarmandchilikni tiklash va rivojlantirish, yoshlar tarbiyasiga hunarmandchilik an'alarini singdirish, ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonlariga "hunarmandlar maktabi" loyihalarini tatbiq qilish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qatlamlari uchun badiiy hunarmandchilik turlari bo'yicha mahorat darslari va bepul kurslarni tashkil qilish, aholining kasbi va hayoti tarixiga bag'ishlangan ko'rgazma va muzey ekspozitsiyalarini yaratish kabi ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida xalq hunarmandchiligi tarixini o'rganish va uning an'alarini keyingi avlodlarga yetkazish bo'yicha ham katta amaliy ishlar qilinmoqda. Xalq ma'naviyatining nodir namunalari bo'lgan tarixiy yodgorliklar, xususan, milliy hunarmandchilik tarixini o'rganish, asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar ham shular jumlasidandir. Zero, "umumbashariy madaniyatning ajralmas qismi bo'lgan xalq amaliy san'ati dunyodagi har bir xalq hayotida, uning turmush tarzi va qadriyatlari rivojida alohida o'rin tutadi"<sup>1</sup>. Bu borada XVI – XVIII asr birinchi yarmidagi Xiva xonligi hunarmandchiligiga xos bo'lgan milliy qadriyatlarni o'rganish hamda tarixiy an'analarni tiklash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-noyabrdagi PQ-4539-son "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-77-son "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 27-dekabrdagi PQ-405-son "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, 2018-yil 16-yanvardagi

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг биринчи Халқаро хунармандчилик фестивалининг тантанали очилиш маросимидаги нутқи // <https://president.uz/uz/lists/view/2863>

F-5181-son “Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoyishi va sohaga doir boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlashda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining 1. “Axborotlashgan va demokratik jamiyatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” hamda tarix sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirildi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi**<sup>2</sup>. Mavzuga oid to‘plangan materiallar hajmi ularni 3 guruhga bo‘lib o‘rganishni taqozo etadi. 1. *Manbaviy materiallar*, 2. *Arxeologik va etnologik tadqiqotlar*, 3. *Tarixshunoslik tadqiqotlari*.

Xiva xonligining ushbu davr hunarmandchilik tarixiga oid manbalar tarkibiga Mahmud ibn Vali (XVII-asrlar)<sup>3</sup>, Abulg‘oziy Bahodirxon<sup>4</sup>, Shermuhammad Munis<sup>5</sup>, Muhammad Rizo Ogahiy<sup>6</sup>, Hofiz Tanish al-Buxoriy<sup>7</sup> kabilarning asarlari, Rossiya va yevropalik elchilar, sayyohatchi, geograf va tadqiqotchilar o‘z asarlari<sup>8</sup>da qisman ma’lumot beradi. “Туркестанские ведомости” gazetasining nashrlari<sup>9</sup>, shuningdek, hunarmandchilik sohalariga oid risolalarning qo‘lyozmalari<sup>10</sup> va Xiva xonlari davlat arxiv hujjatlarida ham qimmatli ma’lumotlar keltirilgan<sup>11</sup>.

<sup>2</sup> Mavzuning o‘rganilishi haqida I-bobda batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

<sup>3</sup> Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей Благородников (География). – Т.: 1977.

<sup>4</sup> Абулғозий Баходирхон. Шажараий турк. – Т.: «Чўлпон», 1992.

<sup>5</sup> Шермухаммад Мунис. Фирдавс ул-икбол. Таржимон: Ш. Ҳ. Воҳидов. – Т.; “Янги Аср Авлоди”. 2010.

<sup>6</sup> Муҳаммад Ризо Огаҳий. Зубдат ут-таворих. – Т.; Ўзбекистон. 2013; Огаҳий. Асарлар. 1-2-3-4-5-6 жилд. 5-жилд. – Т.: 1978.

<sup>7</sup> Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома («Шарафномаий шохий»). Биринчи китоб; Форс тилидан С.Мирзаев тарж.; Сўз боши ва изоҳлар муаллифи: Б. Аҳмедов. – Тошкент, «Шарк», 1999; О‘sha muallif. Абдуллонома («Шарафномаий шохий»). Иккинчи китоб; С.Мирзаев ва Ю. Хақимжонов тарж. Изоҳлар муаллифи: Б. Аҳмедов. – Тошкент, «Шарк», 2000.

<sup>8</sup> Миддендорф А. Ф. Очерки Ферганской долины. – Санкт - Петербург: Лань, 2017. – С.303. – ISBN 978-5-507-43222-6. – Текст: электронный // <https://e.lanbook.com/book/93948?category=10996>. Ликошин Н. Оригинальные наставление к стрельбе. // Туркестанское ведомости. 1901. – № 38, О‘sha muallif. Наставление к стрельбе из ружей. Вкн. Пол жизни в Туркестане. Очерки быта туземного населения. Петроград. Склад Т-ва “В.А.Березовский. Тип.я Б.Д.Брукера. 1916., Комаров П.А.. Несколько слов о рисоля // Туркестанское ведомости. 1901. – №45. Н.О.Петровский. Шёлководство и шёлкомотоние в Средней Азии // Отчётов Министерство Финансов. 1874. Гаврилов М. Рисоля сартовских ремесленников. Исследование преданий мусульманских цехов. – Т.; Тип. При Казн. Ген-Губернат. 1912. Остраумов Н.П. Рисоля телжных мастеров // Туркестанской туземной газеты. 1903. – №30.; О‘sha muallif. Рисоля мясников // Туркестанской туземной газеты. 1901. – №34.; О‘sha muallif. Рисоля токарных дел мастеров // Туркестанской туземной газеты. 1903. – №31.; О‘sha muallif. Рисоля для мастеров раскрашивающих седла светными узорами // Туркестанской туземной газеты. 1901. – №31.; О‘sha muallif. Рисоля о кузнечном ремесл // Туркестанской туземной газеты. 1901. – №45. Наливкин В., М.Наливкина. Очерки быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. Казань. 1886. Позднева Г. Дервиши в мусульманском мире. Оренбург. Бруслена. 1886.

<sup>9</sup> Туркестанское ведомости. 1901. – №31,34, 38,45. Туркестанской туземной газеты. 1903. – №30, 31.

<sup>10</sup> Рисола-и бофандаги (устав ткачей). – Рукописи в АНРУз. Инв. – №4188. – Л.305а-345б; Рисола-и бофандаги. – Рукописи в АНРУз. Инв. – №3072, – Л.205а-208б.; Рисола-и бофандаги. – Рукописи в АНРУз. Инв. – №4120, – Л.50а-101б.; Рисола-и бофандаги. – Рукописи в АНРУз. Инв. – №758. – Л.112-128. Рисола-и дехкончилик. Ичан қалъа музей кўриқхонаси архив фонди, инв. – №4838 қўлёзма. Рисола-и қассобчилик. Ичан қалъа музей кўриқхонаси архив фонди, инв. – №4838 қўлёзма. “Рисолаи шариф” Хўжамурод темирчи ибн уста Муҳаммад Мурод Мархумий Мағфирий номига ёзилган. У киши 1800-1865 йилларда яшаб ўтган. У тўртта авлодга мерос

Mazkur hudud hunarmandchiligining o'rganilishi A.Y.Yakubovskiy<sup>12</sup>, S.P.Tolstov<sup>13</sup>, N.N.Vakturskaya<sup>14</sup>, V.N.Yagodin<sup>15</sup>, Y.A.Rapoportlar<sup>16</sup> Y.E.Nerazik, O.A.Vishnevskaya tomonidan amalga oshirilganligini ta'kidlash joiz. Xorazmning o'rta asrlar davri yodgorliklari va shahar madaniyatini o'rganish keyinchalik ham davom etdi va M.M.Mambetullayev, Y.P.Manilov, G.X.Xojaniyazov, M.Sh.Kdirniyazov, O.T.Dospanov va boshqalarning ilmiy ishlarida hunarmandchilik buyumlari – topilmalari, ustaxonalar, xom-ashyo manbalari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar mavjud<sup>17</sup>.

Xiva shahridagi "Ichan qal'a" muzey-qo'riqxonasi muzeylarida, Qoraqalpog'iston tarixi va madaniyati muzeyi, I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston madaniyati tarixi muzeyi fondlaridagi arxeologik topilmalar, etnografik materiallar hali-hanuz tadqiq etilmasdan qolmoqda. Vaholanki, kulolchilik, temirsozlik, shishasozlik, suyakdan tayyorlangan buyumlar, toshni qayta ishlash mahsulotlar moddiy madaniyat tarixi tadqiqotlarida yuqori natijalarni berishi mumkin. Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki XVI – XVIII asr birinchi yarmi Xorazm hunarmandchiligi soha rivoji tarixiga yangicha yondashuvlar bilan qarash imkonini beradi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining mintaqaviy bo'limi – Xorazm Ma'mun akademiyasining 2018-2020-yillarda amalga oshirilgan I-FA-2019-25-shifrlı "Xorazm shaharlarining tarixi, madaniy meroslari, obidalari va san'at asarlarining tadqiqotlari asosida smart texnologiyalarini yaratish" loyihasi doirasida bajarilgan.

---

сифатида ўтказилган. 1.Хўжамуро темирчи ибн уста Муҳаммад Мурод Мархуми Мағфирий (1800-1865), 2.Халилов Хўсин ( 1865-1935) Халилов Хусан (1865-1834), Хасанов Жуманиёз (1930-1984), Хасанов Эркинбой Жуманиёзович ( 1984 ва ҳозирда ҳаёт). Хоразм вилояти Янгиариқ туманидаги Х.Э.Жуманиёзовнинг шахсий архивида сақланади.

<sup>11</sup> Иванов П.П. Архив Хивинских ханов. XIX в. – Л., 1940; Хива давлат ҳужжатлари. 2 жилд. (М. Юлдошев таҳрири остида). – Т., 1960.

<sup>12</sup> Якубовский А.Ю. Развалины Ургенча // ИГАИМК – Л., 1930. Вып. 2, Т.VI. – С.5-68; О'sha muallif. Городище Миздахкан // ЗКВ. – Л., Т.V, 1930. – С.551-581.

<sup>13</sup> Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: МГУ, 1948. – С.33,156-157; О'sha muallif. По следам древне-хорезмийской цивилизации. – М. – Л.:АН СССР, 1948. – С.308-315; О'sha muallif. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: Вост. лит., 1962. – С.246-295.

<sup>14</sup> Вактурская Н.Н. О раскопках 1948 г. на средневековом городище Шемаха-кала // ТХАЭЭ. – М., 1952. Т.I, – С.173-192.; О'sha muallif. Раскопки городища Ургенч в 1952 г. // ТХАЭЭ. – М., 1952. Т.II, – С.467-490.; О'sha muallif. О средневековых городах Хорезма // МХЭ. – М., 1963. Вып. 7. – С.41-53.

<sup>15</sup> Ягодин В.Н. Маршрутные археологические исследования в левобережной части дельты Амударьи // МХЭ, Вып. 7. – С.73-97.; О'sha muallif. К изучению топографии и хронологии древнего Миздахкана // История, археология и этнография Средней Азии. – М.: Наука, 1968. – С.189-197.; Ягодин В.Н., Ходжаёв Т.К. Некрополь древнего Миздахкана. – Т.: Фан, 1970 – С.327.; О'sha muallif. Опыт палеодемографического изучения Миздахкана // ИМКУ. – Ташкент: Фан, 1978. Вып. 14. – С.43-52.

<sup>16</sup> Рапопорт Ю.А. Раскопки городища Шах-Санем в 1952 г. // ТХАЭЭ. – М., 1952. Т. I. – С.397-420.

<sup>17</sup> Мамбетуллаев М.М., Кдырниязов М.Ш. Городище Воянган // АП. – Ташкент: Фан, 1982. Вып. I. – С.86-92.; Маньлов Ю.П. Археологические исследования каравансараяв Центрального Устюрта // АП. – Ташкент: Фан, 1982. Вып. I. – С.93-121.; Маньлов Ю.П., Кдырниязов М.Ш. Городище Джанпык кала // АП. – Ташкент: Фан, 1984. Вып. II. – С.67-79.; Кдырниязов М.Ш. Городище Миздахкан в золотоордынское время // Тезисы докладов и сообщений. – Нукус, 1987. – С.105-106.; О'sha muallif. Доспанов О. Раскопки городища Джанпык кала в 1986 г. – С. 104.; Туребеков М. Раскопки золотоордынского квартала городища Миздахкан в 1986 г. – С.106-107;

**Tadqiqotning maqsadi:** XVI – XVIII asr birinchi yarmi Xiva hunarmandchiligi tarixini manbashunoslik, arxeologik va etnologik tadqiqotlar asosida tadqiq qilish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

XVI – XVIII asr birinchi yarmida Xiva xonligi hunarmandchiligi bo‘yicha yangi ma’lumotlarni ilmiy muomalaga kiritish, ularni tizimlashtirish;

o‘rganilayotgan davr hunarmandchiligiga oid ma’lumotlarni qiyosiy tahlil qilish;

Xiva xonligi hunarmandchiligining asosiy tarmoqlari, mahalliy hunarmandlarning malaka va tajribalari, sohani tashkil etishning o‘ziga xos jihatlarini yoritish;

hunarmandchilikda yuz bergan o‘zgarishlar, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarning hunarmandlar taqdiri va ustaxonalar taraqqiyotiga ta’sirini ochib berish;

rivojlangan hunarmandchilik tarmoqlari va ularning holatini o‘zaro bog‘liqlikda chuqur va izchil tarzda xolisona ilmiy asosda tadqiq qilish;

Xiva xonligining iqtisodiy tizimida hunarmandchilikning o‘rnini ochib berish;

Xiva xonligidagi hunarmandchilik sexlari, ustoz-shogird va risola tizimining o‘ziga xosligini yoritishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida XVI – XVIII asrning birinchi yarmi davrida Xiva xonligidagi hunarmandchilikning holati va rivojlanish tarixi belgilangan.

**Tadqiqotning predmetini** XVI – XVIII asrning birinchi yarmida Xiva xonligida hunarmandchilik sohalarida ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish jarayonlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Mavzuni o‘rganishda dialektik va qiyosiy tahlil, retrospektiv ko‘rib chiqish ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi, shuningdek, fundamental tarixiylik va izchillik, intervyu va ekspert so‘rovi, ishtirokchi kuzatuv kabi empirik usullari ham qo‘llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Xorazmning qadimgi va o‘rta asrlarlar davrida qurol-aslahalarning takomillashuvi davlatchilik siyosati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, Xorazmshohlar-Anushteginiylar davlatining harbiy salohiyati va qurol aslahalarga bo‘lgan ehtiyoji keyingi davrlarda hunarmandchilikning temirchilik yo‘nalishi rivojlanishining asosiy omili sifatida yuqori cho‘qqiga ko‘tarilishiga zamin yaratganligi ko‘rsatib berilgan;

ixtisoslashgan hunarmandchilik sohasini ichki o‘zgartirish imkoniyati XVI – XVIII asrlarda shahar iqtisodiy bazasida faol taraqqiy etishi va kengayishining muhim omili bo‘lishi, o‘rganilayotgan davrda hunarmandchilikni texnik jihatdan tashkil qilishning takomillashuvi va murakkablashuvining yanada yaqqolroq ifodalanishi, hunarmandchilik faoliyatini amalda tashkil etishning turli shakllari va sharoitlari orqali kechganligi ochib berilgan;

o‘rganilayotgan davrda xorazmliklarga xos hunarmandchilik salohiyati, shuningdek, qo‘shni etnomadaniy hududlarda vohaning bozorbop mollariga bo‘lgan talabning kattaligi asosiy sabab bo‘lib, bu esa xorazmlik kulollar va temirchi ustalarning o‘sha yurtlarga borib, mahsulotlar tayyorlab, mahalliy aholiga sotishlariga turtki bo‘lganligi dalillangan;

Xiva xonligi hunarmandchiligining muhim jihati sifatida kasbga oid risolalar va ustoz-shogird tizimi bu davrda an'anaviy tarzda davom etib, rus mualliflari tomonidan yig'ilgan 40 dan ortiq kasb-hunarga oid risolalar va ularning mukammal axloq-odob, ish normalari haqidagi talablari xonlikda yuksak madaniyat og'ir kunlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligiga asos bo'lganligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Xiva xonligining XVI – XVIII asrni birinchi yarmi doirasidagi tarixini o'rganish natijasida unitilib ketgan milliy hunarmandchilik an'anelarini qayta tiklash hamda shu orqali etnoturizm yo'nalishini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin bo'lgan jihatlar aniqlangan;

Xiva xonligining XVI – XVIII asrni birinchi yarmidagi hunarmandchilik turlari, mahsulotlari, aniqlanishi natijasi o'laroq, ayrim hunar turlari va mahsulotlarini qayta tiklash yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tarix fanida tan olingan yondoshuv va usullarning qo'llanilganligi, qo'lyozma hamda muzey fondlaridan foydalanilganligi, birlamchi manbalarga asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati to'plangan faktik materiallar, dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy xulosalardan hunarmandchilikning ayrim unutilib ketgan tarmoqlari va buyum turlarini tiklash hamda ularni yanada rivojlantirishga qaratilgan qarashlarni ilgari surilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning materiallari asosida O'zbekiston tarixining tegishli davr tarixini to'ldirish, dars jarayonlarida foydalanish mumkinligi, shuningdek, oliy o'quv yurti talabalariga O'zbekiston tarixiga oid o'quv qo'llanma va risolalar tayyorlashda yordam berishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** XVI – XVIII asr birinchi yarmida Xiva xonligi hunarmandchiligi tarixiga oid ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflar asosida:

Xorazmning qadimgi va o'rta asrlarlar davrida qurol-aslahalarning takomillashuvi davlatchilik siyosati bilan bevosita bog'liq bo'lib, Xorazmshohlar-Anushteginiylar davlatining harbiy salohiyati va qurol aslahalarga bo'lgan ehtiyoji keyingi davrlarda hunarmandchilikning temirchilik yo'nalishi rivojlanishining asosiy omili sifatida yuqori cho'qqiga ko'tarilishiga zamin yaratganligi bo'yicha natijalardan Xorazm Ma'mun akademiyasi tasarrufida 2019-2021-yillarda bajarilgan I-FA-2019-25-shifrli "Xorazm shaharlarining tarixi, madaniy meroslari, obidalar va san'at asarlarining tadqiqotlari asosida smart texnologiyalar yaratish" mavzusidagi loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zR FA Xorazm Ma'mun akademiyasining 2023-yil 16-fevraldagi 30/2-23-sonli ma'lumotnomasi). Natijada mazkur davr hunarmandchiligi yozma va arxeologik manbalar asosida tadqiqi hamda mamlakat

iqtisodiy taraqqiyotidagi o‘rnini aniqlash, Xorazm hunarmandchiligini o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlarini ko‘rsatib berishga xizmat qilgan;

ixtisoslashgan hunarmandchilik sohasini ichki o‘zgartirish imkoniyati XVI – XVIII asrlarda shahar iqtisodiy bazasida faol taraqqiy etishi va kengayishining muhim omili bo‘lishi, o‘rganilayotgan davrda hunarmandchilikni texnik jihatdan tashkil qilishning takomillashuvi va murakkablashuvining yanada yaqqolroq ifodalanishi, hunarmandchilik faoliyatini amalda tashkil etishning turli shakllari va sharoitlari orqali kechganligiga oid natijalardan “Ichan qal’a” muzey-qo‘riqxonasining ekspozitsiyalarini boyitishda va ekskursiya jarayonlarida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamgarmasi Madaniy meros agentligining 2023-yil 13-fevraldagi 02-10/332-sonli ma’lumotnomasi). Natijada sayyohlarning muzeyga qiziqishlarining orttirishga, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan;

o‘rganilayotgan davrda xorazmliklarga xos hunarmandchilik salohiyati, shuningdek, qo‘shni etnomadaniy hududlarda vohaning bozorboq mollariga bo‘lgan talabning kattaligi asosiy sabab bo‘lib, bu esa xorazmlik kulollar va temirchi ustalarning o‘sha yurtlarga borib, mahsulotlar tayyorlab, mahalliy aholiga sotishlariga turtki bo‘lganligiga oid natijalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston tarixi” telekanali faoliyatida, jumladan “Tarix va yangi talqin” va “Tarixiy savol” ko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston MTRK “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasining 2023-yil 27-martdagi 06-28/451-sonli ma’lumotnomasi). Natijada Xorazm moddiy madaniyat namunalarini xalqimizga namoyish etishda ssenariylarning boyishiga xizmat qilgan;

Xiva xonligi hunarmandchiligining muhim jihati sifatida kasbga oid risolalar va ustoz-shogird tizimi bu davrda an’anaviy tarzda davom etib, rus mualliflari tomonidan yig‘ilgan 40 dan ortiq kasb-hunarga oid risolalar va ularning mukammal axloq-odob, ish normalari haqidagi talablari xonlikda yuksak madaniyat og‘ir kunlarda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligiga asos bo‘lganligi bo‘yicha natijalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston tarixi” telekanalida “Mavzu” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston MTRK “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasining 2023-yil 27-martdagi 06-28/451-sonli ma’lumotnomasi). Natijada O‘zbekistonning ko‘hna va boy tarixi, xalqimizning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan g‘oyat katta ilmiy, madaniy va ma’naviy hissi to‘g‘risidagi tasavvurlarining kengayishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqotning asosiy mazmuni va natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida aprobatsiyadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 6 ta, jumaldan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarning asosiy

natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, 2 ta xorijiy jurnallarda e’lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati hamda ilovadan iborat. Umumiy hajmi 135 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti belgilab olingan, tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo’nalishlarga mosligi ko’rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalar ishonchli asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning I-bobi *“Xiva xonligi hunarmandchiligi tarixining ilmiy tadqiqotlarda aks etishi”* deb nomlangan bo’lib, 3 ta bo’limdan iborat. Unda arxeologik, etnografik ma’lumotlar, qo’lyozma adabiyotlar va tarixshunoslik tadqiqotlari tahlili berilgan.

Birinchi bobning 1-bo’limi *“Yozma manbalarda Xiva xonligi hunarmandchiligi haqida”* deb nomlangan. XVI – XVIII asrlar Xiva xonligi tarixining eng kam o’rganilgan davri hisoblanadi. Zotan, bu davr uchun manbalarning kamligi tadqiqotchilarni tashvishga soladi. Mazkur davrdagi xonliklar o’rtasidagi o’zaro urushlar, atrofdagi yarim ko’chmanchi aholi bilan ziddiyatlar, Eron va Turkman bosqinlari Xorazmning ilgarigi qudratiga putur etkazgan edi. Ijtimoiy-madaniy hayot ancha quyi darajaga tushgan, ishlab chiqarish qo’l mehnatiga va natural xo’jalikka asoslangan edi.

Aytish joizki, bu davrda nafaqat Xiva xonligi, balki O’rta Osiyo tarixshunosligida hunarmandchilik tarixini yoritishga bag’ishlangan maxsus asar yaratilmagan. Tadqiqotlar va memuarlarning asosiy qismi turli sulolalar tarixini va siyosiy voqealarning bayoniga qaratilgan.

Mazkur davr tarixini o’rganish ko’tarilayotgan mavzuga oid manbalarni to’rt guruhga bo’lishni taqozo etadi.

*Birinchi guruhga* Xiva xonligiga oid O’rta Osiyo mualliflarining qalamiga mansub tarixiy asarlarni kiritish mumkin. Garchi bu asarlar hunarmandchilik sohasiga maxsus qaratilmagan bo’lsada, ularni chuqur o’rganish hunarmandchilik tarixining u yoki bu masalalariga oydinlik kirituvchi ma’lumotlarni berishi mumkin. Bunday asarlar turkumiga Abulg’oziy Bahodirxonning *“Shajaraiy turk”*<sup>18</sup>, Sher Muhammad Munis mirob va Muhammad Rizo Ogahiyning *“Firdavs ul-iqbol”*<sup>19</sup>, Muhammad Rizo Ogahiyning *“Riyoz ud-davla”*, *“Zubdat ut-tavorix”*, *“Gulshani*

<sup>18</sup> Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи турк / Нашрга тайёрловчи Қ. Муниров, М. Маҳмудов. – Тошкент: Чўлпон. 1992. – Б.189.

<sup>19</sup> Шермухаммад Мунис ва Муҳаммад Ризо Огаҳий. Фирдавс ул-икбол. Таржимон: Ш. Ҳ. Воҳидов. – Т.; “Янги Аср Авлоди”. 2010.

davlat”<sup>20</sup>, Muhammad Yusuf Bayoniyning “Shajaraiy Xorazmshohiy”<sup>21</sup> Hofiz Tanish al-Buxoriyning “Abdullanoma” (1-2-kitob)<sup>22</sup> asarlarini kiritish mumkin.

*Ikkinchi guruhga* mansub manbalar turkumiga Rossiya imperiyasi va boshqa davlatlarning fuqarolari tomonidan Xiva haqida yozib qoldirilgan asarlarni kiritish mumkin. Ular jumlasiga turk admirali Seydi Ali Rais (1553-1554)<sup>23</sup> xotiralari, savdogar F.Skibin<sup>24</sup>, X.Vamberining<sup>25</sup> XVIII - asrning ikkinchi yarmida Xivada bo‘lgan poruchik D.Gladishev va geodezist I.Muravin (1741), samaralik savdogar D. Rukavkin (1753), F.I.Soymanov (1763), ko‘z shifokori mayor Blakennagel (1793-1794) va XIX-asrda kapitan N.Muravyev taassurotlari (1819-1820)<sup>26</sup>, V.Zalesov, A.F.Middendorf<sup>27</sup>, N.O.Katanov, S.M.Smirnov, N.Likoshin<sup>28</sup>, V.P.Nalivkin, P.A.Komarov<sup>29</sup>, N.P.Ostraumov, S.I.Laxtin, N.O.Petrovskiy<sup>30</sup>, A.N.Samoylovich, M.Gavrilov<sup>31</sup>larning va boshqalarning asarlarini e’tirof etish lozim.

Manbalarining *uchinchi guruhni* esa arxiv hujjatlari (arxivlarda saqlanayotgan hunarmandchilik risolalari) va shaxsiy uylarda saqlanayotgan ro‘yxatga olinmagan va nashr qilinmagan materiallar tashkil qiladi. Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan qo‘lga kiritilgan va ilmiy muomalaga qo‘shilayotgan yangi manba Xorazm viloyati Yangiariq tumanidagi X.E.Jumaniyozovning shaxsiy arxivida saqlanayotgan “Risolai sharif” (temirchilik risolasi) ham mavzuning manbashunoslik masalalariga oydinlik kiritishga yordam beradi.

---

<sup>20</sup> Мухаммад Ризо Огахий. Зубдат ут-таворих. – Т.: Ўзбекистон. 2013; Огахий. Асарлар. 1-2-3-4-5-6 жилд. 5-жилд. – Т.: 1978.

<sup>21</sup> Мухаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшохий. ЎзР ФА ШИ, – № 9596 рақамли қўлёзма. 509-варақ.

<sup>22</sup> Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома («Шарафномаи шоҳий»). Биринчи китоб; Форс тилидан С.Мирзаев тарж.; Сўз боши ва изоҳлар муаллифи: Б.Аҳмедов. – Тошкент, «Шарк», 1999. О‘sha muallif. Абдуллонома («Шарафномаи шоҳий»). Иккинчи китоб; С.Мирзаев ва Ю.Хақимжонов тарж. Изоҳлар муаллифи: Б. Аҳмедов. – Тошкент, «Шарк», 2000.

<sup>23</sup> Сейди Али Раис. Миръотул ал-мамолик // Таржима ва изоҳлар муаллифи: Ш.Зуннунов. – Тошкент, 1963. – Б.160.

<sup>24</sup> Материалы по истории Узбекистана, Таджикистана и Туркмении. – М. – Л. 1932. – С. 266.

<sup>25</sup> Qarang: Вамбери Х. Очерки и картины восточных нравов. – СПб.: «Общественная польза». 1877. – С.20-45-201. О‘sha muallif. Путешествие по Средней Азии. – М.; Восточная литература. 2003. – С.40-60.

<sup>26</sup> Гладышев Д., Муравин И. Поездка из Орска в Хиву и обратно, совершенная в 1740-1741 гг. Поручиком Оренбургского драгунского полка Дмитрием Гладышевым и геодизистом Муравиным. Издана с приобщением современной карты Миллерова пути от Орска до Зюнгорских владений и обратно Я.В.Ханыковым. – СПб., 1851. – С.85.; Путешествие из Оренбурга в Хиву самарского купца Рукавкина в 1753 г. // Туркестанский сборник. – СПб., 1883. Т. 386. – С. 43-79.; Соیمانов Ф.И. Описание Каспийского моря. – СПб., 1763. – С. 380.; О‘sha muallif. О торгах за Каспийское море древних, средних и новейших времен. – СПб., 1763. – С. 74.; Блакеннагель. Путевые заметки Блакеннагеля о Хиве в 1793-1794 гг. с примечаниями В.В. Григорьева // Вестник Русского Географического Общества. – СПб., 1858. Т. XXII. – С. 87-117.; Путешествие в Туркмению и Хиву 1819–1820 годах гвардейского генерального штаба капитана Николая Муравьева, посланного в сии страны для переговоров // Туркестанский сборник. – СПб., 1870. Т.269. – С.1-329.

<sup>27</sup> Миддендорф А. Ф. Очерки Ферганской долины – Санкт-Петербург: Лань – 2017. – С.303. – ISBN 978-5-507-43222-6. Текст: электронный // <https://e.lanbook.com/book/93948?category=10996>.

<sup>28</sup> Ликошин Н. Оригинальные наставления к стрельбе // Туркестанские ведомости. 1901. №38. О‘sha muallif: Наставление к стрельбе из ружей. В кн. Пол жизни в Туркестане. Очерки быта туземного населения. Петроград. Склад Т-ва В.А.Березовский. Тип.я Б.Д.Брукера. 1916. – С.323.

<sup>29</sup> Комаров П.А. Несколько слов о рисоля // Туркестанские ведомости. 1901. – №45.

<sup>30</sup> Петровский Н.О. Шёлководство и шёлкомотоние в Средней Азии // Отчётов Министерство Финансов. 1874, – С.150-170.

<sup>31</sup> Гаврилов М. Рисоля сартовских ремесленников. Исследование преданий мусульманских цехов. – Т.; Тип. При - Казн. Ген-Губернат. 1912. – С.3-7.

Ikkinchi bo‘lim “Xiva xonligi hunarmandchiligi tarxini o‘rganishda arxeologik va etnologik tadqiqotlar natijalarining ahamiyati”ga bag‘ishlangan. Xorazmning bu davr hunarmandchiligi tarixi bo‘yicha arxeologik materiallar ham yetarli emas. Shu sababli, biz mavzuni Urganchdagi Toshqal’a, Mizdahqon, Xumbuztepa, Kat kal’a, Olma otishgan va Qal’ajiq qal’a, Hazorasp va Xiva qal’alari materiallari misolida ko‘rib chiqamiz. Bu joylardan topilgan arxeologik ashyolarning katta ko‘pchiligini sopol buyumlar tashkil etadi. Xorazmning rivojlangan o‘rta asrlar davri tarixiy yodgorliklarini o‘rganish 1937-yilda S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasining tashkil etilishi bilan bog‘liq. Uzoq yillar mobaynida ekspeditsiya a‘zolari tomonidan ko‘plab o‘rta asr yodgorliklari – shahar va qishloqlar, karvonsaroylar, me‘moriy yodgorliklar topib tekshirildi. Ko‘hna Urganch, Shemaxaqal’a, Shohsanam, Shehrlilik shaharlari hududlarida keng ko‘lamli qazishmalar olib borildi<sup>32</sup>.

V.N.Yagodin, M.M.Mambetullayev, Yu.P.Manilov, G.X.Xojaniyozov, M.Sh.Qdirniyozovlarning tadqiqotlarini shunday tadqiqotlar jumlasiga kiritish mumkin<sup>33</sup>. Keyingi yillarda S.Baratov, Q.Sabirov, A.Abdirimov, B.Sadullayev kabi arxeologlar Janubiy Xorazm hududida tadqiqot ishlarini olib borib, Meshekli, Hazorasp, Olmaotishgan-2, Sandiqlitepa, Qalajiq qal’a, Kat qal’a yodgorliklaridan XVI – XVIII asrlarga oid kulolchilik, metall va shisha buyumlar qoldiqlarini topishga muvaffaq bo‘ldilar<sup>34</sup>.

Mazkur arxeologik tadqiqotlar XVI – XVIII asrning birinchi yarmida Xiva xonligi hududida hunarmandchilik davlat iqtisodiyoti va aholi turmushining asosiy sohalaridan biri ekanligi tasdiqlangan. Arxeologik qazishma ishlari natijasida hunarmandchilikning kulolchilik, metallsozlik sohalariga oid ko‘plab artefaktlar qo‘lga kiritilgan va hozirda Nukus va Xiva muzeylarida saqlanmoqda.

Birinchi bobning uchinchi bo‘limi “*Tarixshunoslik tadqiqotlarida hunarmandchilik masalalarining yoritilishi*” deb nomlangan. Xiva xonligining XVI – XVIII asr tarixshunosligi masalasi ham murakkab bo‘lib, bironta jiddiy ilmiy tadqiqot qilinmagan. Shunday bo‘lsada yig‘ilgan ma‘lumotlar asosida tarixshunoslik adabiyotlarini shartli ravishda 3 ta guruhga bo‘lish mumkin: 1.*Sovet davri tarixshunosligi materiallari*, 2. *Mustaqillik davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar*. 3.*Xorijiy tadqiqotlar*.

Birinchi guruh, o‘rta asrlar hunarmandchiligi tarixining ilk bora tadqiq qilgan taniqli qadimshunos va tarixchilar A.Y.Yakubovskiy, S.P.Tolstov, N.N.Vakturskaya, Y.E.Nerazik, G.A.Fedorov-Davdov, O.G.Bolshakov, V.N.Yagodin M.V.Sazanova<sup>35</sup>,

<sup>32</sup> Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации ... – С. 309.

<sup>33</sup> Кдырнийзов М.Ш. История материальной культуры городов Хорезма XIII-XIV вв. – Нукус, Каракалпакстан, 1989. – С.111; Кдырнийзов М.Ш., Кдырнийзов О.Ш. Металлические изделия из средневекового Миздахкана // Древняя и средневековая урбанизация Евразии и возраст города Шымкент: Материалы Международной научно-теоретической конференции. – Шымкент, 2008. – С.211-227; Кдырнийзов М.Ш. Ремесло Хорезма в эпоху Амира Тимура и Тимуридов // Вестник ККО АН РУз. 2008. – №1. – С.67-70.

<sup>34</sup> Хоразм Маъмур академияси жорий архиви.

<sup>35</sup> Сазонова В. К этнографии узбеков Южного Хорезма // ТХАЭЭ. – М.: АН СССР, 1952. – Т.1. – С.247-318.; Сазонова В. Традиционное хозяйство узбеков Южного Хорезма. – Л., 1978. – С.96.

K.L.Zadixina<sup>36</sup> va boshqalarning ilmiy izlanishlari bilan bog‘liq<sup>37</sup>. Hunarmandchilik mahsulotlarining noyob nusxalari haqidagi ma’lumotlar va shular bilan bog‘liq hunarmandchilik tarixiga oid fikrlar Xorazm sivilizatsiyasini ochgan buyuk qadimshunos S.P.Tolstovning fundamental asarlarida ham o‘z aksini topdi. Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi xodimlaridan M.V.Sazanova, K.L.Zadixina, T.A.Jdanko va X.E.Esbergenovlarning asarlarida voha xalqlari hunarmandchilik mahsulotlari haqida qisqa ilmiy fikr-mulohazalari berilgan.

Ikkinchi guruh adabiyotlarga mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlar kiradi. Mavzuga aloqador, ammo bizning tadqiqotimizning davriy chegarasidan oldin va keyin bo‘lgan davrlar uchun yaratilgan ilmiy tadqiqotlar mavjud. T.Abdullayev<sup>38</sup> va S.Turayeva<sup>39</sup>, S.Masharipova<sup>40</sup>, Sh.Reyimbayev<sup>41</sup>, M.T.Jumaniyozovanning<sup>42</sup> dissertatsion tadqiqotlarida ham hunarmandchilikning turli sohalariga to‘xtalib o‘tilgan. I.M.Jabborov<sup>43</sup>, A.Abdurasulov<sup>44</sup>, B.Tuganov<sup>45</sup>, Y.M.Raxmanova<sup>46</sup>, M.Abdullayev<sup>47</sup>lar ham Xorazm hunarmandchiligi bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Uchinchi guruhga mansub xorijiy tadqiqotlar haqida gapirar ekanmiz, Xiva xonligining mazkur davriga oid maxsus xorijiy tadqiqot yo‘qligini aytib o‘tish joiz. Shunday bo‘lsada, bu asarlardan O‘rta Osiyoning hunarmandchilik tarixining rivojlanish bosqichlari to‘g‘risida umumiy ma’lumotlarni olish mumkin. I.A.Shamray, K.Rabillon, A.Enriko<sup>48</sup>, V.M.Ferrerasning<sup>49</sup> tadqiqotlari hunarmand-

<sup>36</sup> Задыхина К. Узбеки дельты Амударьи // ТХАЭЭ. – М: АН СССР, 1952. Т.I. – С.318-426.

<sup>37</sup> Абдуллаев Т.П. История изучения ремесла в средневековом Хорезме // Вестник ККО АН РУз. – Нукус, 2009. – №3. – С.97-100.

<sup>38</sup> Abdullayev T.P. XII – XV asrlarda Xorazm hunarmandchiligi. Tarix fan. nomz. diss. – Nukus, 2010. 165-varaq.

<sup>39</sup> Turayeva S. XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asrning 70-yillarida Xiva xonligi hunarmandchiligi tarixi. Tarix fan. nomz. diss. – Toshkent, 2010. 173-varaq.

<sup>40</sup> Машарипова С. Амударё қўйи оқими минтақаси халқ меморчилиги (Қадимий Хўжайли шаҳри мисолида): Архитектура фан.ном. дисс... – Тошкент, 2004.

<sup>41</sup> Рейимбаев Ш. Хоразм шаҳарларининг XX аср охири – XX аср бошларидаги архитектуравий ва тархий тизими: Архитектура фан.ном. дисс... – Тошкент, 2005. 122-варак.

<sup>42</sup> Жуманиёзова М.Т. XIX асрнинг охири – XX асрнинг бошларида Хоразм воҳаси аҳолисининг этник таркиби ва моддий маданиятига хос баъзи бир хусусиятлари. 07.00.07. – Этнография, этнология ва антропология шифри бўйича тарих фанлари номзоди даражасни олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. – Тошкент. 1998.

<sup>43</sup> Джаббаров И.М. Ремесло узбеков Южного Хорезма в конце XIX начале XX вв. – JL: Наука, 1971. – С.72- 90.

<sup>44</sup> Abdurasulov A. Xiva (tarixiy-etnografik ocherklar). – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1997. – Б.144.

<sup>45</sup> Tuganov B. Xorazmning o‘rta asrlardagi metallsozlik hunarmandchiligi (VIII-XIV asrlar arxeologik materiallari asosida). Tarix fan.nomz.diss. – Samarqand, 2009. 255-varaq.

<sup>46</sup> Раҳманова Ю. Хива тарихидан лавҳалар. – Тошкент. “Академнашр”. 2019. – Б.220.

<sup>47</sup> Abdullayev M. Xorazm amaliy-bezak san’atining rivojlanish tarixi (XVI - XX asr boshlari). San. Fan. Falsafa doktori diss. – Toshkent, 2018. 185-varaq.

<sup>48</sup> Шамрай И.А. Наукатское месторождение минеральной краски и глины Киргизстана // Ученные записки Государственного Университета. В Ростов-он-Дон. 1997. Katharina Rabillon. Fascinating gold embroidery, colourful pottery and handmade arpets. In the old caravan city of Bukhara merchants still sell their goods today under. Published on 16/11/2015 - 12:02 GMT+1// <https://www.euronews.com/travel/2015/11/16/bukhara-s-rich-handicraft-heritage.>, Enrique Ariño, Paula Uribe, Jorge Angás, Raquel Piqué, Rodrigo Portero, Verónica Martínez-Ferreras, M. Gurt. Adaptive Dynamics of Settlement Models in the Urban Landscape of Termez (Uzbekistan) from c. 300 BCE to c. 1400 CE // Land 2023, 12, 1550. <https://www.mdpi.com/2073-445X/12/8/1550>.

<sup>49</sup> Ferreras V. M. Kushan ceramic culture through the excavations on Termez (Uzbekistan) and Balkh (Afghanistan)// Archaeological Research in Asia Volume 36, December 2023, 100487.// <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2352226723000594>, Ferreras V. M. Islamic ancient Termez: An active and long-established ceramic manufacturing centre along the silk road// Archaeological Research in Asia Volume 31, September 2022, 100375// <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2352226722000265>

chilikning sopol buyumlarga oid tarmog'i tarixini o'rganishda asosli material bo'lib xizmat qiladi

Tabiiyki, asrlar davomida bizgacha yetib kelgan bunday noyob topilmalar o'tgan zamonlar tarixidan guvohlik beruvchi muhim ashyoviy dalil bo'lib, ular yozma manbalar ma'lumotlari bilan taqqoslashni va aniq tushunchalar berishni taqazo etadi. Bu esa, o'z-o'zidan, hunarmandchilik tarixini, uning rivojlanish bosqichlari va jihatlarini, mahsulotlar andazalarini tarixiy yo'nalishda tadqiq etish, mavzuga oid tarixshunoslik lahvasini yaratish muammosini yuzaga keltiradi. Shu paytga qadar to'plangan ilmiy ma'lumotlar majmui Xorazmning o'rta asrlardagi hunarmandchilik salohiyatini, uning tarixini, mahsulotlar turini ilmiy jihatdan o'rganishga hamda davrlar silsilasida ularning an'anaviylik va o'zgaruvchanlik xususiyatlarini aniqlashga zamin yaratadi.

Arxeologik topilmalar moddiy madaniyat tarixini o'rganish uchun manba vazifasini o'taganligi bilan, ular hali butunicha yaxlit manba bo'la olmaydi, faqat ularni ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'lagan holda chuqur tahlil qilish va umumlashtirish orqaligina aniq tarixiy xulosalar chiqarish mumkin. XVI – XVIII asrlarda Xorazmning shahar va qishloq maskanlarida hunarmandchilikning o'z zamonasiga mos barcha zarur sohalar rivojlanishi uchun sharoit mavjud bo'lgan. Hozirgacha to'plangan hunarmandchilikka oid materiallar majmuasi Xorazmning madaniy tarixini hamda ayrim tarixiy davrlardagi iqtisodiy jarayonlarni tiklashda manba vazifasini o'taydi.

Ikkinchi bob **“Xiva xonligida hunarmandchilik turlari va mahsulotlar tasnifi”** deb nomlangan bo'lib, unda rivojlangan hunarmandchilik turlari – to'qimachilik, ko'nychilik, kulolchilik, yog'ochsozlik, metallsozlik va boshqa sohalar taraqqiyoti ochib berilgan. Ikkinchi bobning birinchi bo'limi *“Hunarmandchilikning to'qimachilik hamda ko'nychilik turlari va mahsulotlari”* deb nomlangan. To'qimachilik va ko'nychilik Xorazm hunarmandchiligining asosiy sohalaridan biri bo'lgan. Paxta, ipak va jundan turli matolar to'qilgan. Hududda chitgarlik rivojlangan. Arzon va amalda ko'p foydalanilgan ushbu mato etnografik ma'lumotlarda “chit” nomi bilan ham tilga olinadi. Xiva xonligida gazlama to'quvchilarning ixtisoslashgan chitgarlar guruhi mavjud bo'lgan. “Chitgar” atamasi tarixiy-etnografik ma'lumotlar va arxiv materiallaridan ma'lum<sup>50</sup>.

Xorazmda bo'z, chit, olacha, obyol, baxmal (mahmal), kimxob, shoyi, atlas ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Xiva xonligi davriga oid tarixiy asarlarda va Xiva xonlari davlat arxiv hujjatlarida mato va kiyim nomlari ko'p uchraydi. Kiyimlardan to'n, chakmon, yelak, ko'ylak, belbog'lar ko'p ishlatiladi. Ayniqsa mukofot tariqasida beriladigan to'nlar juda keng tarqalgan. To'nlarining bir qancha turlari bo'lgan. Jumladan, latta to'n (oddiy to'n), kimxob to'n, zarboft chapon va b. Chitga gul bosishda yog'ochdan yasalgan qoliplardan foydalanganlar. Chitlarga

---

Assessing Hellenistic to nomadic cultural patterns through pottery in ancient Termez, Uzbekistan// Geoarchaeology: Volume 34, Issue 5 pages: 507-628 September // October 2019. // <https://onlinelibrary.wiley.com/toc/15206548/2019/34/5>.

<sup>50</sup> Документы архива Хивинских ханов по истории и этнографии каракалпаков. – М.: Наука, 1967. – С.284.

asosan islimiy gullar tushirilgan. Xorazmda kashtachilik rivojlanmagan, ammo dasturxon va soʻzanalarga bosma usulda gul tushirilgan. Xivada ipakdan yupqa qilib toʻqilgan turma, madali belbogʻlar alohida ajralib turadi. Bosh kiyimlardan taxya tikish ancha taraqqiy etgan. Erkaklar, ayollar va bolalar taxyalari farqlanadi.

Koʻnchilar mahsi - yumshoq tagcharmli etik, unga mos kavush; yaltiratilgan qora teridan yasalgan - amirkon mahsi, amirkon kavush; baland poshnali etiklar tayyorlaganlar. Erkaklarning mahsilari mardona mahsi deb atalgan boʻlib, ayollarning “zaifona mahsi”lariga qaraganda balandroq tikilgan va odatda qattiqroq teridan tayyorlangan, bolalarning “bachkana mahsi”si yumshoq teridan tikilgan<sup>51</sup>.

Poʻstinlarni oshlangan qoʻy terisidan, junlarini ichkariga qaratib tikkanlar va toʻq sariq rangga boʻyaganlar. Buxoro vodiysida va unga yaqin tumanlarda telpaklar qiya konus shaklida boʻlgan. Xorazmda terini teskari tomoniga aylantirilib tikilgan oʻziga xos bosh kiyimi chugirma deb ataladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi boʻlimi “*Kulolchilik, yogʻochsozlik va ular bilan bogʻliq hunarmandchilik sohalari*” deb nomlanib, shu sohalar rivojiga, ularning oʻziga xos xususiyatlariga bagʻishlangan. XVI – XVIII asrlarda asosan kulolchilik charxida yasalgan ommaviy mahsulotlar va maxsus qoliplarda tayyorlangan koshin tipidagi buyumlar – idish-tovoq, meʼmoriy bezak taxtachalari (mayolika va mozayika), taqinchoqlar keng ommalashadi<sup>52</sup>.

Xorazm vohasida oʻziga xos, bir-biriga oʻxshash sirlanmagan idishlar chiqarila boshlagan, yaʼni mahalliy kulolchilik hunarmandchiligi oʻzining maʼlum anʼanasiga, maktabiga ega boʻlgan. Shunday kulolchilik markazlari Zamaxshar, Jigarband, Qavatqalʼa, Jampiqqalʼa, Mizdahkon va Shemaxaqalʼada mavjud boʻlganligini taʼkidlash lozim. Janubiy Xorazmda joylashgan Jigarband va Sadvar shaharlari (Amudaryoning chap qirgʻogʻi) ham shunday hunarmandchilik markazlaridan boʻlib, ulardagi sopol topilmalari koʻproq Movarounnahr (Buxoro Sugʻdi) va Shimoliy Xuroson kulolchiligiga xos belgilarni oʻzida aks ettirgan. Xorazmning urbanizatsiya markazlari sanalmish Koʻhna Urganch, Xiva, Mizdahkon, Jampiqqalʼa, Hazorasp, Kerdor kabi shahar yodgorliklaridan ancha miqdordagi yangi arxeologik ashyolar olingan. Bu izlanishlar natijasida toʻplangan va olinayotgan yangi maʼlumotlarni umumlashtirish, chuqur qiyosiy va ilmiy tahlil qilish orqali XVI – XVIII asrlar Xorazm kulolchilik maktabining oʻziga xos xususiyatlari, mahalliy anʼanalar va madaniy aloqalar jarayonidagi oʻzaro taʼsir natijalari singari masalalarga oydinlik kiritildi.

XVI – XVIII asr oʻrtalaridagi Xorazm kulollari tayyorlagan mahsulotlarning ikkinchi turkumini sirlangan buyumlar tashkil qiladi. Bu davrda voha kulollari oʻz mahsulotlarini sariq, koʻk, yashil (feruza), tabiiy oʻsimliklardan tayyorlangan rangsiz qorishma (ishqor), kobalt turidagi sirlar bilan sirlaganlar. Voha aholisining yuqori sifatli mahsulotlarga boʻlgan talabining ortishi yangi xildagi sopol buyumlarning shakllanishiga olib kelgan.

<sup>51</sup> Jabborov I. Oʻzbeklar: turmush tarzi va madaniyati. – Toshkent: Sharq, 2003. – B.42.

<sup>52</sup> Якубовский А.Ю. Городище Миздакхан. – Л.: АН СССР, 1930. Т.V. – С.573.

Xorazmda oʻrta asrlarlarda, koʻp tarmoqli hunarmandchilik xoʻjaligi turlaridan biri bu yogʻochga ishlov berish – duradgorlik boʻlgan. Yogʻoch Xorazm vohasi aholisi uchun qulay material boʻlgani bilan, uning tabiiy zaxiralari kam boʻlgan. Sunʻiy yoʻl bilan yetishtirilgan yogʻochlardan Xorazm vohasida qadimgi davrlardan boshlab, asosan, qurilish materiallari sifatida, baʼzan bezak maqsadlarda, yogʻoch oʻymakorligi sohasida (darvoza, eshik, ustun, tuynuk tayyorlash) foydalanilgan.

Xiva xonlari va amaldorlari tomonidan qurilgan binolarni Xorazmning yogʻoch oʻymakor ustalari chiroyli, ulugʻvor oʻra (ustun)lar, bejirim darvoza, va eshiklar, panjaralari bilan bezaganlar. Yogʻoch oʻymakorligi meʼmorchilik va uy-roʻzgʻor buyumlarida keng qoʻllanilgan. Vazifasiga koʻra, Xorazm yogʻoch oʻymakorligi buyumlarini 3 guruhga ajratish mumkin: 1) qurilish jihozlari - oʻra, oʻratosh (poyustun), qopi (eshik), darvoza, ship, qosh va b.; 2) uy-roʻzgʻor buyumlari – orja (sandiqlik), ustalar (stol), kursi (stul), lavh, qubda (chinniqop), hasa va b.; 3) asbob-anjomlar – egar, xomut, qamchi, qoliplar.

XVI – XVIII asr birinchi yarmiga oid ayrim nodir buyumlar “Ichan qalʼa” davlat muzey qoʻriqxonasida (Juma masjid ustunlari, Arabxon madrasasi kapiteli, shift boʻlagi), Pahlavon Mahmud maqbarasi eshigi va boshqalar) saqlanib qolgan va shularning oʻzi ham bu davrda yogʻoch oʻymakorligi yuksak taraqqiy etganligini koʻrsatadi.

Ikkinchi bobning uchinchi boʻlimi “*Metallsozlik: uy-roʻzgʻor buyumlari, ot anjomlari va qurol-yarogʻlar tayyorlash*” deb nomlangan. Xorazm yodgorliklaridan aniqlangan temirchilik hunarmandchiligi izlari bu hududda metallsozlik tarmogʻining jadal rivojlanganini koʻrsatadi. Xorazm temirchi ustalari tayyorlagan mahsulotlarni qoʻllanish sohasiga koʻra, mehnat qurollari, uy-roʻzgʻor buyumlari, chorva anjomlari va harbiy qurol-aslahalar singari alohida guruhlarga ajratish mumkin. Metall buyumlar qatorida misgarlik mahsulotlari va uning zeb-ziynat turlarini alohida qayd qilsa boʻladi.

Bu davr Xorazm temirchilik hunarmandchiligi mahsulotlaridan boʻlmish qilich, shamshir va xanjarlar voha aholisining harbiy faoliyatida keng qoʻllanilgan. Bunday qurol-aslahalar Xorazmning shimoliy chekka sarhadlarida joylashgan Qalʼaliq-1, Jarinquduq-14, Mizdahkon yodgorliklaridan topilgan<sup>53</sup>.

Metallsozlikda koʻproq Sulton Uvays togʻ tizmalaridagi mahalliy ruda konlaridan foydalanilgan. Sulton Uvays togʻi yaqinidagi Jampiqqalʼa yodgorligining shimoli-gʻarbidagi Oqtov makoni atroflaridan qadimgi mis konlari markazi izlari oʻrganilgan<sup>54</sup>.

Xorazm yodgorliklaridan aniqlangan temirchilik hunarmandchiligi izlari bu hududda metallsozlik tarmogʻining jadal rivojlanganini koʻrsatadi<sup>55</sup>. Metall buyumlar

<sup>53</sup> Вактурская Н.Н. О средневековых городах Хорезма ... Рис. 3.

<sup>54</sup> Маньолов Ю.П. Археологические памятники Султануиздага эпохи античности и средневековья. Автореф. дисс. канд. истор. наук. – Ташкент: 1972. – С.16.

<sup>55</sup> Турганов Б.К. Металлообрабатывающее ремесло средневекового Хорезма (по археологическим материалам VIII-XIV вв.): Автореф. дисс... канд. истор. наук. – Самарканд: 2009. – С.27.

qatorida misgarlik mahsulotlari va uning zeb-ziynat turlarini alohida qayd qilsa bo‘ladi.

